



HADIS ILMINING DAHOSI

Jaxongir Norbekov

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabalari


Rustamjon Jumayev

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabalari

Islom olamining eng buyuk mutafakkirlaridan biri, yirik alloma, muhaddislar imomi, hadis ilmining sultoni Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriydir. Buyuk muhaddis olim Imom Buxoriyning ijodiy merosi o`zining hajmi, zamonasining diniy va ijtimoiy fanlarini to`la-to`kis qamrab olgani bilan kishini hayratga soladi. Buxoro zaminida tug`ilib voyaga yetgan buyuk hadisshunos islom olamida amalga oshirgan ishlari orqali nafaqat O`rta Osiyo balki, butun dunyoga mashhurdir. Imom Buxoriy timsoli orqali tom ma`nodagi ilm –ma`rifat homiysi, Alloh ilmining haqiqiy oshig`isini ko`ramiz. Xususan, muhtaram birinchi prizidintimiz Islom Karimov shunday fikrlarni bildirib o`tganlar:”

Ma`lumki, xalqimiz azaldan islom dini va madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo`shib keladi. Bu haqiqatni jahon hamjamiyatchiligi butun musulmon dunyosi yaxshi biladi va tan oladi. Nufuzli xalqaro tashkilot bo`lmish Islom konferansiyasi tashkilotining Ta`lim fan va madaniyat masalalari bo`yicha tuzilmasi AYSESKO tomonidan Toshkent shahrini 2700-yilda Islom ma`daniyati poytaxti deb e`lon qilingani ham ana shunday yuksak e`tirofning yana bir tasdig`i” Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev BMT Assambeliyasining 72 sessiyasida so`zlagan nutqlarida bu buyuk zot haqida alohida fikrlar bildirilib shunday deyilgan: ”Ana shunday buyuk allomalardan biri Imom Buxoriy o`z ahamiyatiga ko`ra islom dinida Qur`oni Karimdan keyingi muqaddas kitob hisoblangan “ Sahihi Buxoriy ” ning muallifi sifatida butun dunyoda tan olingan. Bu ulug` zotning g`oyat boy merosini asrab avaylash va o`rganish ma`rifatliy islom to`g`risidagi ta`limotini keng yoyish maqsadida biz Samarqand shahrida Imom Buxoriy nomidagi Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish to`g`risida qaror qabul qildik “. haqida Islom madaniyati rivojiga ulkan hissa qo`shgan alloma “ muhaddislar sultoni ” nomi bilan ulug`lanadi. Bizga ma`lumki hadis ilmi bilan shug`ullanuvchilar muhaddislar deb yuritiladi. Hadisi sharif islom dinida Qur`oni Karimdan keyingi o`rinda turuvchi muqaddas manba sanaladi. Imom Buxoriy umr bo`yi hadislarini to`plash va tizimga solish bilan shug`ullanganlar. Ana shu ilmlar asosida Imom Buxoriy 20 dan ortiq asar yozgan.

Mazkur asarlar jumlasiga “ Al-jome` as-sahih ” (Ishonchli to`plam), “ Al-adab al-mufradot ” (Adab durdonalari), “ Kitob al -favoyid ” (Foydali ashyolar haqida kitob) , “ Kitob al-kuna ” (Kunyalar haqida kitob) , “ At-tarixas-sag`ir ” (Katta tarix) , “ Kitob al-vuhdon ” (Yagonalar haqida kitob) , “ Kitob ar-rikok ” (Nafosat haqida kitob) , “ Kitob al-ilal ” (Illatli hadislar haqida kitob) va boshqalarni keltirishimiz mumkin.





Mana shunday asarlardan biri “ Kitob al-ilal ” asaridir. Uning tarjimasi “ Illatli hadislar haqida kitob ”dir. Arab tilidagi “illat” soʻzi oʻzbek tilida ham “ kasallik ” maʼnosida qoʻllaniladi. Muhaddislar istilosida esa xadising sahligiga putur yetkazadigan yashirin va maxfiy sabablarga nisbatan qoʻllaniladi. Bunday hadislar “ maʼlul ” (illatlangan) deb ataladi. Ularda zohiran qaraganda sahih boʻlib koʻrinayotgan boʻlsa-da, biroq, chuqur tekshirilganda uning saxihligiga putur yetkazadigan qandaydir sabablar borligi maʼlum boʻladi. Baʼzida roviyning yolgʻonchiligi, fosiqligi, quvvai hofizasining yomonligi, yoshi ulgʻaygan sari zehning oʻtmaslanib qolgani kabilar hadislarning “illati” sifatida koʻrsatilishi mumkin. Biroq ayrim hollarda mutlaq ishonchli roviylar tomonidan rivoya qilingan aʼlo darajadagi sahih hadislarda ham “ illat ” topilib qoladiki, undan oʻsha roviylarning oʻzlari ham bexabar qolgan boʻladi.

Bunda sahih deb ishonchli roviylar tomonidan rivoyat qilinayotgan hadis matnidagi har xillik sabab boʻladi. Iboralardagi tushunmovchilik boshqa shu mavzudagi hadislariga teskarilik maʼlum boʻlib qoladi. Shuning uchun muhaddis Hokim “Maʼrifat ulum al-hadis” asarida: Hadislarning illatlari roviylarga taʼna qilishning oʻzi hisoblanmaydi. Chunki taʼna koʻpchilikka maʼlum boʻlib, undan roviyning rivoyati oʻz-oʻzidan soqit boʻladi. Hadislarning illati esa illatli hadisni rivoyat qiladigan ishonchli roviylarning hadislarida koʻproq uchraydi .[4.396.]

Aksar hollarda hadisning sanadidan “illat” topiladi. Bu “illat” larning koʻzga yaqqol tashlanib turadiganlari “mavquf” , “mursad” va “muntaqe” hadislar deb ataladi. Juda kam hollarda “illat” hadis matnidan topiladi. Hadis “illat” larini topish eng mohir muhaddislarga nasib qilgan.[5.] Imom al-Buxoriy ana shunday isteʼdod egalaridan biri boʻlgan. Imom Buxoriy mazkur soha boʻyicha barakali ijod qilganlar. “Al-ilal ” nomli asarlar bitganlar. Ularning ushbu asarlarini oʻrganish hadis ilmi tarixini tadqiq qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, tarix fani shunday bepayon ummonki, uning sarhadlari cheksiz, mazmuni teran va ulugʻvor hisoblanadi. Shu ummonning bir qismi sifatida islom dini rivoji yoʻlida oʻzining beqiyos va ajralmas hissasini qoʻshgan hadis ilmining sultoni Imom al-Buxoriy bobomiz hisoblanadi. Bu insonning yaratgan asarlari islom dini tarixi zarvaroqlarida gavhardir.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Islom Karimov “Yuksak maʼnaviyat - yengilmas kuch”.
2. SHavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasi 72-majlisida soʻzlagan nutqidan . Nyu – York . 2017. 18-20-sentabr.
3. Tarixiy manbashunoslik muammolari “Respoʻblika ilmiy – amaliy konferinsiya materiallar” (2018-yil 25-aprel)
4. Ismoilov M. “Hadis Illat”lari nima ? ”

